XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2023 - yil 28 - dekabr VI-63-155-8-108-K/23 Oltinsoy tuman hokimligi

Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan tegishli qarorlariga asosan ajratilgan va ishlatilmay qolgan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarib olish va qaytarib olingan mablag‘ni ajratish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son Qonunining 13-moddasiga asosan tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning axboroti xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida eshitilib, bildirilgan takliflarni inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining 2023-yil 1-mart VI-55-41-8-108-K/23-sonli “Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi 46-son farmoni bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirish, daraxt va butalarni muhofaza qilish hamda yashil maydonlarni kengaytirish uchun 2 (foizi) **30 185 000** so‘m mablag‘dan foydalanilmay qolgan 15 185 000 so‘m, tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga aholining turmush tarzini yaxshilash maqsadida polietilen quvur sotib olish uchun 30 000 000 so‘m mablag‘dan foydalanilmay qolgan 2 700 500 so‘m, tuman Sport maktabining isitish tizimini joriy ta’mirlash uchun 49 167 000 so‘m mablag‘dan foydalanilmay qolgan 1 504 500 so‘m va 2023 - yil 19 - avgustagi VI-61-121-8-108-K/23-sonli “Xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining 2023 - yil 1 - mart VI-55-41-8-108-K/23-sonli “Oltinsoy tuman mahalliy budjetining 2023-yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan

mablag‘ ajratish to‘g‘risida”gi qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi qaroriga asosan Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi "Sohibkor" mahallasida sel o‘zanini ta’mirlashda ishlatiladigan qurilish materiallarini sotib olish uchun 18 000 000 so‘m mablag‘, **jami 37 390 000** so‘m mablag‘ tuman mahalliy budjetiga qaytarib olinsin.

2.Belgilangan tartibda tuman mahalliy budjetiga qaytarib olingan 37 390 000 so‘m mablag‘ tuman hokimligi apparati (tuman hokimi va o‘rinbosarlari bundan mustasno) va texnik xodimlar hamda kotibiyat xodimlariga “Yangi yil” bayrami munosabati bilan moddiy rag‘batlantirish uchun 37 390 000 so‘m mablag‘lar o‘tkazib berilsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Abdurayimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **(**S.Saidahmedov)larga:

tuman mahalliy budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan ajratilgan mablag‘larni maqsadli yo‘naltirilishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Mahalliy budjetning qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

5. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan qonunda belgilangan tartibda maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek, ushbu mablag‘lar ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

6. “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **B.O.Maxmatrayemov**